



## Korxonalar va tashkilotlar

(2019-yil 1- oktabr holatiga)

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)

Ro'yxatdan o'tgan

35,1  
ming.

Faoliyat ko'rsatayotgan

34,6  
ming.

Yangi tashkil etilganlar

6,0  
ming.

2019-yilning yanvar-sentabr oylarida Farg'ona viloyatida 6003 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2558 taga ko'pdir.

Natijada, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 6,2 mingta (22,2 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 34,6 mingtani tashkil etgan.

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiriq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.




# Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(2019-yil 1-oktabr holatiga)

35,1 mingtani  
tashkil etdi

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar soni, birlikda



21,7 %


O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati



2019-yilning 1-oktabr holatiga 35069 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, Iqtisodiy faoliyat turlari boyicha jami ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 4,8 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 21,6 % sanoatda, 8,1 % qurulishda, 25,4 % savdoda, 4,0 % tashish va saqlash, 4,9 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 2,9 % axborot va aloqa, 2,3 %, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 26,0 % boshqafaoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

# Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha (8920 ta) savdo, (7560 ta) sanoat, (2856 ta) qurilish, (1699 ta) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, (1703 ta) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, (1390 ta) tashish va saqlash, (1023 ta) axborot va aloqa, (792 ta) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda (9126 ta) boshqa faoliyat turlariga to'g'ri kelmoqda.

# Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 34615 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 6239ta (22,1%) ga o'sgan.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar ulushi, %


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari,)




Savdo




Sanoat




Qurulish




Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi




Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar




Tashish va saqlash



Axborot va aloqa




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish



Boshqa turlar

# Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Farg'ona shahri (6200 ta), Qo'qon shahri (4663 ta), Marg'ilon shahri (3458 ta), Uchko'prik tumani (1790 ta) va Dang'ara tumani (1655 ta) shahar, tumanlar hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha So'x tumani (804 ta), Furqat tumani (823 ta) hamda Yozyovon (736 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

# Yangi tashkil etilgan

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil yanvar-sentabr-oylarida 6003 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 2558 taga ko'pdir.

Yangi tashkil etilgan korxonalarining o'sish surati,  
birlikda



Yangi tashkil etilgan korxonalarining Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi sanoatda (1436 ta), savdoda (2635 ta), qurilishda (422 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (220 ta), tashish va saqlashda (223 ta), yashash va ovqatlanish xizmatlarida (365 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (76 ta), va sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (83 ta) tashkil etilgan.



# Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Savdo



2635

Tashish va saqlash



223

Sanoat



1436

Qurilish



422

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



365

Axborot va aloqa



76

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish



76

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi




220

Boshqa turlar




543

## Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar asosiy qismi Farg'ona (936 ta), Qo'qon (711 ta), Marg'ilon (556 ta) shaharlarida, Oltiariq (345 ta), Quva (384 ta) va O'zbekiston (289 ta) tumanlarida tashkil etilgan. Eng kam So'x (81 ta) hamda Yozyovon (115 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar yillar kesimida



■ Korxonalar sonini o'sishi, birlikda



# Tijorat korxonalari

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(2019-yil 1-oktabr holatiga)


**Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar va tashkilotlar soni 28751 tani tashkil qildi.**

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda


Mas'uliyati cheklangan jamiyati



Xususiy korxonona



Oilaviy korxonona




Aksiyadorlik jamiyati



Boshqalar



# Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar



387 ta

O'tgan yilning shu davriga nisbatan 52,3 % o'sgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar soni.



Asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.




2019-yil 1-oktabr holatiga ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 389 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 133 taga yoki 52,0 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalaridan 269 tasi qo'shma korxonalar, 118 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.



# Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda



# Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni yillar kesimida soni, birlikda



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning 269 tasi qo'shma, 118 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.




Xorijiy korxonalar

Jami

Qo'shma korxonalar




Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Farg'ona 127 ta (32,8 %), Qo'qon 57 ta (14,7 %), Marg'ilon 24 ta (6,2 %), Quvasoy 22 ta (5,6) shaharlarida, Farg'ona tumanida 20 ta (5,1 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar So'x tumani 2 ta (0,5 %), Furqat tumani 5 ta (1,1 %), Qo'shtepa tumani 6 ta (1,4 %), Bag'dod tumani 8 ta (2,2 %), Buvayda tumani 8 ta (2,0 %) va Yozyovon tumani 4 ta (1,0 %) hissalariga tog'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.






## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda



Ko'rinib turibdiki faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.




# Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar



## 1 Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar


2019-yilning yanvar-sentabr oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarining soni 110 tani tashkil etgan.

Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,0 martaga ko'paygan.



Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 15 ta, Turkiya Respublikasi – 7 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 15 ta, Koreya Respublikasi – 12 ta va boshqa davlatlar – 61 ta korxonalar yangi tashkil etilgan.

# Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 59 ta, savdoda 19 ta, qishloq va o'rmon xo'jaligi 15 ta, qurilishda 3 ta va boshqa korxonalarda 5 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.

# Kichik korxonalar va mikrofirmalar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

**(2019-yil 1-oktabr holatiga)**



*2019-yil 1-oktabr holatiga respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 28583 tani tashkil etgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 26,5 % ga oshgan.*

*2019-yil yanvar-sentabr oylarida 5747 tadan ziyod kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda 2817 taga ko'proqdir.*






• Kichik tadbirkorlik subyektlarining eng katta ulushi

• Kichik tadbirkorlik subyektlarining eng kichik ulushi



Farg'ona shahar  
18,1 %



Beshariq tumani  
2,7 %



Qo'qon shahar  
14,2 %



Rishton tumani  
2,7 %



Marg'ilon shahar  
10,7 %



Furqat tumani  
2,1 %



Uchko'pik tumani  
5,4 %



So'x tumani  
2,1 %




Dang'ara tumani  
4,9 %



Yozyovon tumani  
1,8 %


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ro'yxatdan o'tgan jami 28864 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 8887 tasi (30,7 %) - savdoda, 7512 tasi (26,0 %) - sanoatda, 2838 tasi (9,8 %) - qurilishda, 1642 tasi (5,6 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 1695 tasi (5,8 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 1375 tasi (4,7 %) - tashish va saqlashda, 1021 tasi (3,5 %) - axborot va aloqa sohasida, 600 tasi (2,0 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 3294 tasi (11,4 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi

## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
- Sanoat
- Qurilish
- Savdo
- Tashish va saqlash
- Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- Axborot va aloqa
- Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish
- Boshqa turlar


# Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (2634 ta), sanoatda (1434 ta), boshqa turdagi xizmatlar (308 ta), qurilishda (420 ta), tashish va saqlashda (223 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (203 ta) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (365 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (76 ta), hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (81 ta) tashkil etilgan.



# Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni, birlikda





Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Farg'ona (890 ta), Qo'qon (687 ta), Marg'ilon (545 ta) shaharlarida, Oltiariq (332 ta) va Buvayda (280 ta) tumanlarida tashkil etilgan. Eng kam So'x (75 ta), Furqat (128 ta) hamda Yozyovon (105 ta) tumanlarida tashkil etilgan.



# Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




(1-sentyabr holatiga)




● Ro'yxatdan o'tgan    ● Faoliyat ko'rsatayotgan  
● Yangi tashkil etilgan

● Ro'yxatdan o'tgan    ● Faoliyat ko'rsatayotgan  
● Yangi tashkil etilgan

## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni hududlar kesimida soni, birlikda



# Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



Faoliyat olib borayotgan oilaviy korxonalarining Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarining 45,9 % yoki 1640 tasi sanoat, 19,1 % yoki 683 tasi savdo, 13,6 % yoki 489 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 7,5 % yoki 270 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 2,1 % yoki 76 tasi tashish va saqlash, 0,8 % yoki 32 tasi axborot va aloqa, 1,2 % yoki 43 tasi qurilish, 0,8 % yoki 32 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 8,6 % yoki 305 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Viloyat statistika boshqarmasi**  
**Statistik registrlarni yuritish**  
**bo'limi**

**Tel.:71-230-87-37**

